

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TO'RAYEVA ZILOLA TURG'UNOVNA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOG'I FAOLIYATINING  
SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH**

**08.00.06. – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по экономическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
in Economic Sciences

<b>To'rayeva Zilola Turg'unovna</b> O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini statistik baholash.....	3
<b>Тураева Зилола Тургуновна</b> Статистическая оценка эффективности промышленной отрасли Республики Узбекистан.....	29
<b>Turayeva Zilola Turgunovna</b> Statistical assessment of the efficiency of the industrial sector of the Republic of Uzbekistan.....	57
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TO'RAYEVA ZILOLA TURG'UNOVNA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOG'I FAOLIYATINING  
SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH**

**08.00.06. – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Toshkent – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4402 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Salimov Baxtiyor Tadjiyevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Umarova Muqaddas Abbasovna</b> iqtisodiyot fanlari doktori(DSc), professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.  
Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-27; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B.E. Mamaraximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishida samaradorlik darajasining oshishi jamiyatlarning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarining muhim ko'rsatkichi bo'lib kelmoqda. Jumladan, 2024-yilda "Sanoat mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM)dagi ulushi Germaniyada 26,7 foiz, Polshada 29,8 foiz, Shveysariyada 24,2 foiz, Italiyada 20,4 foiz, Qozog'istonda 34,5 foiz, Xitoyda 39,5 foiz"<sup>1</sup> hamda jami bandlikning sanoatdagi ulushi Xitoyda 32 foizi, Germaniya va Italiyada 27 foiz, Yaponiyada 24 foiz, Qozog'istonda 22 foizni tashkil etadi"<sup>2</sup>.

Sanoat tarmog'i O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Mamlakatimizning sanoat salohiyatining o'sishi yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, global raqobat sharoitida sanoat tarmoqlarining samaradorligini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining sanoat tarmog'ida modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ammo, statistika va ekonometrik tahlillar sanoat samaradorligini statistik baholash uchun etarli miqdorda emas. Samaradorlikni ishonchli statistik usullar bilan baholash, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash sanoat strategiyasini tubdan shakllantirish uchun zarur hisoblanadi. 2017–2024- yillarda sanoatdagi o'sish tendensiyalari ishlab chiqarish tuzilmalarini keng ko'lamda isloh qilish sharoitida shakllandi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish har yili o'rtacha 6,2 foizga, umuman, tahlil qilingan davrda esa 1,5 barobardan ko'proqqa o'sdi. Bu sanoatning iqtisodiy o'sish "drayveri" sifatidagi o'rnini mustahkamlash imkonini berdi. Sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 2017-yildagi 22,2 foizdan 2024-yilda 26,4 foizgacha oshdi. Sanoat tarmog'ida bandlik darajasi 13,6 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 4,9 foizga oshgan. Sanoatdagi bandlikning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (28,9 foiz) qayd etilgan. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ham sanoatda band bo'lganlarning ulushi yoqori bo'lib, ular mos 20,3 foizni va 22,8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 4 milliondan oshgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 76,5 foizga ko'paygan. o'zini o'zi band qilgan shaxslar sonining 49,6 foizi sanoat tarmog'ida faoliyat yuritgan. Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'i ahamiyatining oshib borayotganini va

<sup>1</sup> <https://w3.unece.org/PXWeb/ru/CountryRanking?IndicatorCode=11>. ma'lumotlari.

<sup>2</sup> <https://data.worldbank.org/indicator/SL.IND.EMPL.ZS> ma'lumotlari.

sanoatdagi bandlikning o'sish tendensiyasini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sanoat tarmog'ining faoliyat samaradorligini statistik usullar orqali baholash va uning rivojlanish omillarini ilmiy asoslangan holda aniqlash nafaqat iqtisodiyotning bugungi muammolarini hal etishda, balki kelajakdagi barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining faoliyati samaradorligini statistik baholash uslubiyatini takomillashtirish, korrelyatsion-regression tahlil usullariga asoslangan holda qo'shimcha qiymatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasining hududlari bo'yicha sanoat tarmog'ining rivojlanishini statistik baholash muammolari ko'rib chiqiladi. Bu esa iqtisodiy siyosatni samaraliroq va maqsadga muvofiq yo'naltirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-son Farmonlari, 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son "Milliy Statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini statistik baholash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng miqyosda o'rganilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari bilan sanoat tarmog'ining taraqqiyoti o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish va rivojlantirishning ayrim jihatlari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan, sanoat tarmog'ini rivojlantirish masalalarini statistik tahlil qilish, statistik baholash, ekonometrik modellashtirish, tarmoqlararo balans va optimallashtirish modellarini tuzish, iqtisodiy o'sishni prognozlash masalalari xorijlik olimlardan G.Renshaw, R.D.Barro, R.L.Thomas, M.Mukhlis, M.Oytun, A.Muharrem va M.Hirooka va boshqalar o'zlarining ilmiy ishlarida sanoatni rivojlantirish yo'nalishlarini aks ettirgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Renshaw G. Maths for Economics (англ.) - New York: Oxford University Press, 2005. - 516-526 p.; Барро Р. Д., Сала-и-Мартин Х. Экономический рост / Пер. с англ. – М.: Бином. Лаборатория знаний, 2010. - 824 с.; Thomas R.L. Modern econometrics. - England.: Manchester Metropolitan University, 1998. - 211 p.; M.Mukhlis. et al.: Agglomeration of Manufacturing Industrial, Economic Growth, and Interregional Inequality in South Sumatra, Indonesia // International Journal of Economics and Financial Issues. 2017.

Shu bilan birga, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirish, tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni ekonometrik tadqiq etish hamda rivojlanish muammolari L.A.Chernishev, Yu.N.Ivanova, Ye.V.Maslyukova, A.V.Xorsova, P.I.Razinkov, O.P.Razinkova, A.S.Pelix, O.P.Korobeynikov, D.V.Xavin va V.V.Nozdryn tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish va uning hududiy tarkibini shakllantirish muammolari respublika olimlari – B.B.Berkinov, Sh.Shodiyev, A.M.Abdullayev, Yo.A.Abdullayev, N.M.Maxmudov, R.X.Alimov, B.T.Salimov, B.K.G'oyibnazarov, B.Otaniyozov, A.T.Kenjabayev, I.S.Abdullayev, B.Ruzmetov, X.D.Xo'jaqulov, A.A.Qosimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan<sup>5</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № OT-F1-154 "Milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yalpi ichki mahsulot o'sishiga tasirini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (2017-2020 yy.) fundamental loyiha doirasida amalga oshirilgan.

---

№7(4), 214-224 p.; Oytun M., Muharrem A. The Effects of Structural Transformations in Economy on Labor Markets: the Case of OECD Countries // International Journal of Business and Social Science. Vol. 5, No. 9(1) -August 2014.; Hirooka M. Innovation Dynamism and Economic Growth. A Nonlinear Perspective. - Cheltenham, UK - Northampton, MA, USA «EdwardElgar», 2006. – 75 p.

<sup>4</sup> Чернышев Л.А. Экономико-математические методы и модели: учеб. пособие – Екатеринбург, 2013. – 30 с.; Иванова Ю.Н. Основы международной статистики: учебник. – М.: Инфра-М, 2013. 621 с.; Маслюкова Е.В., Хорсова А.В. Эконометрическое моделирование взаимосвязи ресурсной обеспеченности и экономического роста региона // 2016. №10(73), 3-4 с.; Разиньков П.И., Разинькова О.П. Оценка экономического потенциала предприятия/ Издательство ТвГТУ, 2016г. - 39-40 с.; Пелих А.С. Экономика предприятия и отрасли промышленности. Учебное пособие. – Д.: Феникс, 2004. – 448с.; Коробейников О.П., Хавин Д.В., Ноздрин В.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. – Нижний Новгород, - "ОРКС", 2003. – 47 с.

<sup>5</sup> Беркинов Б.Б. Пахтачилик минтақасида қишлоқ хўжалигини юритиш тизимини моделлаштириш. док. дис. – Т.: ТХХИ, 1991; Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): Дис. докт. экон. наук. – Т.: ТГЭУ, 1988.; Абдуллаев А.М. Региональные проблемы прогнозирования научно-технического прогресса в промышленности. Автореф. дисс., на соис. докт. экон. наук. – Т., 1989.; Ё. Абдуллаев. Регионал иқтисодиёт самарадорлиги статистикасидаги муаммолар. иқт. фан. док. дис. – М.: МЭСИ, 1987 й.; Махмудов Н.М. Моделирование производственно-экономических процессов хлопкоперерабатывающих отраслей.: дисс. докт. экон. наук. – Т.: ТГЭУ, 1993.; Алимов Р.Х. Прогнозный анализ и управление развитием хлопковопромышленных комплексов. Дисс. докт. экон. наук. – Т.: ТГЭУ, 1993.; Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона. – Т.: Ўқитувчи, 1995. 154 с.; Ғайибназаров Б.К. Ўзбекистон Республикаси миллий ҳисоблар тизимини ишлаб чиқишнинг илмий методологик асослари. док. дис. – Т.: ТДИУ, 2006; Кенжабаев А.Т. Эконометрическое моделирование развития промышленности города: на примере города Алмалыка: дис. канд. экон. наук. – Т., 1990.; Абдуллаев И.С., Рузметов Б. Худудий иқтисодий тизимни ривожланишини прогнозлашнинг комплекс сонли эконометрик моделлари. Монография. – Тошкент: "Lesson Press", 2017. 14 бет.; Хўжақулов Х.Д. ва бошқ Иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилиш шароитида таркибий ўзгаришларнинг самарали йўллари статистик методлар асосида ишлаб чиқиш. Монография – Т.: Наврўз 2018. – 206 б. Қосимов АА. Саноат тармоғи самарадорлигини ошириш жараёнларини эконометрик моделлаштириш (Сурхондарё вилояти мисолида) // 08.00.06 – "Эконометрика ва статистика" иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати// ТДИУ, 2021 йил. 28 бет.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini statistik baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ini rivojlanishining bosqichlari va har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

O'zbekiston Respublikasida mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ko'zda tutgan holda sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlash;

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishini aniqlash;

sanoat tarmog'i faoliyati samaradorligini statistik baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasi hududlarida sanoat korxonalarida xodimlarining o'rtacha olgan foydasining ishonch intervalini anketa – so'rovnomalar asosida statistik baholash va istiqbollarga baho berish;

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan xodimlar olgan o'rtacha oylik daromadining modal va mediana daromad asosida desil koeffitsiyentini statistik baholash;

sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ARIMA modeli asosida ekonometrik modellashtirish;

sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatini prognozlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini statistik baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini oshirish mexanizmini statistik baholash jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida statistik kuzatish, korrelyatsion-regression tahlil, dinamika qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, statistik baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorlik indikatorlari (ishchi vaqti, resurs sarfi, ishlab chiqarish quvvati, mehnat unumdorligi va h.k.)ning korrelyatsion munosabati asosida samaradorlikning integral indeksi ishlab chiqilib, umumiy maqbul chegarasidagi o'sishini ta'minlash orqali sanoat faoliyati samaradorligiga erishish asoslangan;

sanoat korxonalarida xodimlari o'rtasida mehnat unumdorligi va daromad taqsimoti o'rtasidagi statistik disbalansni bartaraf etish hamda yopiq oraliqlar, detsillar va boshqa oraliqlarda guruhlangan sanoat korxonalarida xodimlarining oylik pul daromadlari miqdorini taqsimlash asosida modal

daromad ( $M_o$ ) va medianal daromad ( $M_e$ )ning qiymati bo'yicha detsil koeffitsiyenti ( $K_d$ )ni aniqlash takomillashtirilgan;

sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning ARIMA modeli asosidagi tahlili orqali sanoat qo'shilgan qiymatining (GVA) o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy ijobiy omillar sifatida ishlab chiqarishdagi investitsiyalar, ishchi kuchi unumdorligi hamda texnologik modernizatsiya darajasi asosida sanoat ishlab chiqarishi qo'shilgan qiymati ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

anketa-so'rovnomalari asosida sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorlik darajasi to'g'risida haqiqiy, sifatli va shaffof ma'lumotlar olish hamda ularni tahlil qilish imkoniyati kengaytirilib, "Google Format" dasturiy ta'minot uchun algoritm ishlab chiqilishi natijasida sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorlik darajasini statistik baholash uslubiyoti amaliyotga tatbiq etilgan;

O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalaridan olingan daromadga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, olingan statistik ma'lumotlar asosida yopiq oraliqlar, detsillar (10 %) va boshqa oraliqlar bo'yicha guruhlangan sanoat korxonalarining xodimlari jon boshiga pul daromadlari miqdorlari bo'yicha taqsimlash asosida modal daromad va medianal daromadning qiymati bo'yicha sanoat korxonalarini xodimlarining oylik daromadlarining detsil koeffitsiyenti aniqlangan;

sanoat tarmog'i faoliyatidan olingan daromadlariga ta'sir etgan eng kuchli, kuchsiz ijobiy va salbiy omillar ta'sirini ekonometrik modellashtirish orqali sanoat tarmog'idan olingan daromadga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatni prognoz qilinishi natijasida bir necha variantdagi prognoz ssenariylari ishlab chiqilib, makroiqtisodiy mutanosiblik muammolarni hal qilish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy tadqiqot ishidagi nazariy va amaliy statistik ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, prognoz ko'rsatkichlarini ekonometrik usullar vositasida ilmiy asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining xodimlari tomonidan foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy xulosalar va takliflardan sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini

o'shish mexanizmini statistik baholash, sanoat korxonalari tizimini iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vazirlik va idoralar tomonidan sanoat tarmog'i korxonalari tizimi rivojlanishi va raqobatbardoshligiga statistik baho berishda, undagi muammolarni aniqlashda va boshqarishda, sanoat tarmog'i tizimining rivojlanish istiqbollarini statistik belgilashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorlik indikatorlari (ishchi vaqti, resurs sarfi, ishlab chiqarish quvvati, mehnat unumdorligi va h.k.)ning korrelyatsion munosabati asosida samaradorlikni integral indeksi ishlab chiqilib, umumiy maqbul chegarasidagi o'sishini ta'minlash orqali sanoat faoliyati samaradorligiga erishish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan sanoat korxonalari samaradorligini statistik baholashni takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi 04-07-27-5784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida anketa-so'rovnomalarida qatnashgan 7792 ta sanoat korxonalar faoliyatidagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, statistik ko'rsatkichlarni ochiq e'lon qilish kengaytirilgan va "Google Format" dasturiy ta'minoti ishlab chiqilishi natijasida samaradorlikni statistik baholashni takomillashtirish metodologiyasi amaliyotga joriy etilgan;

sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi va daromad taqsimoti o'rtasidagi statistik disbalansni bartaraf etish hamda yopiq oraliqlar, detsillar va boshqa oraliqlarda guruhlangan sanoat korxonalari xodimlarining oylik pul daromadlari miqdorini taqsimlash asosida modal daromad ( $M_o$ ) va medianal daromad ( $M_e$ )ning qiymati bo'yicha detsil koeffitsiyenti ( $K_d$ )ni aniqlashni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo va sanoat palatasi tomonidan sanoat korxonalarini rivojlantirish va qo'shilgan qiymat hajmini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalangan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi 04-07-27-5784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sanoat korxonalari daromadiga ta'sir etuvchi eng kuchli ijobiy omillar kombinatsiyasiga ko'ra qo'shilgan qiymat zanjirini mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyat va ularning aniqlik darajasini oshirishga erishilgan;

sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning ARIMA modeli asosidagi tahlili orqali sanoat qo'shilgan qiymatining (GVA)

o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy ijobiy omillar sifatida ishlab chiqarishdagi investitsiyalar, ishchi kuchi unumdorligi hamda texnologik modernizatsiya darajasi asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan sanoat ishlab chiqarishi qo'shilgan qiymati prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan mamlakatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sanoat korxonalarida ishlovchi xodimlar turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi 04-07-27-5784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sanoat korxonalarini faoliyatini rejalashtirishda mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish imkoni yaratilgan;

sanoat tarmog'ida qo'llaniladigan elektron statistik hisobotlarni xalqaro andozalarga mos ravishda prognoz uslubiyatining ma'lumotlar bazasini kengaytirish orqali sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan ko'p variantli prognoz ssenariylari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan sanoat korxonalarini rivojlantirish va qo'shilgan qiymat hajmini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalangan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi 04-07-27-5784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning istiqboldagi parametrlarini baholash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishining asosiy taklif va tavsiyalari ma'ruzalar shaklida 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalari bo'yicha chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda, 4 ta tezis, shundan 3 ta xalqaro, 2 respublika ilmiy anjumanlarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 103 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan

ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmog‘i – statistik o‘rganish obyekti sifatida”** deb nomlanuvchi birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoat tarmog‘ini rolini statistik o‘rganish obyekti sifatida qaralib, sanoat tarmog‘i ni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini statistik baholash ifodalovchi ko‘rsatkichlar manbalarini hamda sanoat tarmog‘i faoliyati samaradorligini statistik baholashda xorijiy tajribalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari statistik nuqtayi nazardan yoritib berilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Sanoat tarmog‘ini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, jahon bozorida yuqori raqobatbardosh bo‘lgan ishlab chiqarishlarni manzilli qo‘llab-quvvatlanishi, ishlab chiqarishlar tarkibida qayta ishlash sanoatining ulushini oshishiga ko‘maklashdi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi yalpi ishki mahsuloti (taqqoslama baholarda) 2010-yilda 625788,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 1454573,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2024-yilda 2010-yilga nisbatan 828785,1 mlrd so‘mga yoki 2,3 martaga oshgan.


**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasi YalM, sanoat QQ hajmining o‘zgarish dinamikasi<sup>6</sup>**

Yillar	YalM, mlrd so‘m		YalM o‘shishi (kamayishi) sur‘ati, %		Sanoat tarmog‘ining QQ, mlrd so‘m		Sanoat tarmog‘ining QQning oshishi (kamayishi) sur‘ati, %	
	joriy baholarda	2024y. baholarida	2010 y = 100 %	oldingi yilga nisba-tan	joriy baho-larda	2024y. baholarida	2010 y = 100 %	oldingi yilga nisbatan
2010	78936,6	625788,8	100	107,1	12997,3	165572,8	100	105,9
2011	103232,6	672723,0	107,5	107,5	15951,8	172858,0	104,4	104,4
2012	127590,2	720486,3	115,1	107,1	20462,6	182710,9	110,4	105,7
2013	153311,3	773081,8	123,5	107,3	25388,8	196414,2	118,6	107,5
2014	186829,5	826424,5	132,1	106,9	32136,7	205252,9	124,0	104,5
2015	221350,9	885927,1	141,6	107,2	38 466,6	216131,3	130,5	105,3
2016	255421,9	938196,7	149,9	105,9	45 398,0	227802,4	137,6	105,4
2017	356453,8	979477,4	156,5	104,4	65 258,8	239648,1	144,7	105,2
2018	473652,8	1034328,1	165,3	105,6	102 879,6	265530,1	160,4	110,8
2019	594659,6	1104662,5	176,5	106,8	145 083,9	278806,6	168,4	105
2020	668038	1122337,1	179,3	101,6	162 013,3	281315,9	169,9	100,9
2021	820536,6	1212124,0	193,7	108,0	202 219,3	306071,7	184,9	108,8
2022	995573,1	1284851,5	205,3	106,0	240 210,4	322293,5	194,7	105,3
2023	1204485,0	1365797,1	218,3	106,3	289 371,4	342597,9	206,9	106,3
2024	1 454 573,9	1454573,9	232,4	106,5	365 894,6	365894,6	221,0	106,8

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2010–2024-yillik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmi (taqqoslama baholarda) 2010-yilda 165572,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 365894,6 mlrd so'mni tashkil etgan tarzda, 2024-yilda 2010-yilga nisbatan 200321,8 mlrd so'mga yoki 2,2 martaga oshgan (1-jadval).



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010–2024-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, (trln so'm)<sup>7</sup>**

O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalaridan tomonidan 2010-yilda 38,1 trln so'mlik, 2024-yilda 885,8 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat siyosatining asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va ijtimoiy yo'nalgan bozor iqtisodiyotining iqtisodiy asoslarini yaratishdan iborat bo'ldi. Chunki, bu davrda birgina milliy valyutaning joriy qilinmaganligi iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz va siyosiy beqarorlikning kelib chiqishi uchun yetarli omil bo'lishi mumkin edi (1-rasm).

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010–2024-yillar bo'yicha statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.




**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi, (%da)<sup>8</sup>**

2024-yilda 2023-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 %ni tashkil etdi (2-rasm).

O‘zbekiston Respublikasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Sanoatning “drayver” sohasini rivojlantirish uchun sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida jami faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 2010-yilda 29900 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bo‘yicha 55646 tani tashkil etdi (3-rasm).



**3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2010–2024-yillar bo‘yicha jami faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlikda<sup>9</sup>**

Shu sababli, sanoat tarmog‘ida sanoat korxonalarining faoliyati samaradorligini statistik usullarda baholashning nazariy hamda uslubiy

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2010–2024-yillar bo‘yicha statistik axborotnomasi ma‘lumotlari asosida tuzildi.


<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

asoslarini o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "Sanoat tarmog'i faoliyatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish" deb nomlanuvchi ikkinchi bobida sanoat korxonalarini o'rtacha daromadining ishonch intervalini "Google Format" platformasida anketa-so'rovnoma asosida statistik baholanib, sanoat tarmog'iga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini statistik baholash hamda ularning yalpi ishlab chiqarish hajmi "ARIMA" modeli asosida ekonometrik modellashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasini o'rganish maqsadida 55646 ta sanoat korxonasidan 7790 tasi tasodifiy takrorlanmaydigan sxemada kuzatish o'tkazildi va quyidagi ma'lumotlar olindi (4-rasm).

#### Bugungi sanoat korxonangiz resurslardan samarali foydalangan tarzda qanday miqdorda foyda oladi?



4-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasining salmog'i, (so'rovnoma asosida, %da)<sup>10</sup>

O'tkazilgan so'rovnomalarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 7792 ta respondentning 1052 tasi (13,5 %) foyda olmaydigan, 1581 tasi (20,3 %) 0-200 mln so'mgacha, 1169 tasi (15,0 %) 200-400 mln so'mgacha, 1317 tasi (16,9 %) 400-600 mln so'mgacha, 787 tasi (10,1 %) 600-800 mln so'mgacha, 717 tasi (9,2 %) 800-1000 mln so'mgacha, 1169 tasi (15 %) 1000 mln so'mdan yuqori foyda oladigan sanoat korxonalarini ekanligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).

2-jadval

<sup>10</sup> Muallifning ilmiy tadqiqotlari (so'rovnoma) natijalari asosida hisob-kitoblar

## Tanlanma kuzatishda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasi bo'yicha guruhlar<sup>11</sup>

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasi bo'yicha guruhlar, mln so'm	Sanoat korxonalar soni, dona (f <sub>i</sub> )	Interval o'rtacha qiymati, (x <sub>i</sub> )	x <sub>i</sub> f <sub>i</sub>	x <sub>i</sub> - x̄	(x <sub>i</sub> - x̄) <sup>2</sup>	(x <sub>i</sub> - x̄) <sup>2</sup> f <sub>i</sub>
0-200	2633	100	263300	-359,76	129427,26	340781969,3
200-400	1169	300	350700	-159,76	25523,26	29836688,1
400-600	1317	500	658500	40,24	1619,26	2132562,3
600-800	787	700	550900	240,24	57715,26	45421907,7
800-1000	717	900	645300	440,24	193811,26	138962671,7
1000 dan yoqori	1169	1100	1285900	640,24	409907,26	479181584,1
<b>Jami</b>	n=7792	x=481,85	3754600	-	-	1036317383,2

a) 0,860 ehtimollik bilan faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan o'rtacha foydasini o'zgarish chegaralarini aniqlaymiz:

Sanoat korxonalarining olgan o'rtacha foydasi 481,85 mln so'mga teng:

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i f_i}{\sum f_i} = \frac{3754600}{7792} = 481,85 \text{ mln so'm.} \quad (1)$$

Tanlanma to'plam dispersiyasi 132997,61 ga teng.

$$\sigma^2 = \frac{\sum (x_i - \bar{x})^2 f_i}{\sum f_i} = \frac{1036317383,2}{7792} = 132997,61 \quad (2)$$

Ma'lumki, ehtimol P(t)=0,860 bo'lganda, ishonch koeffitsiyenti t = 1,47 ga teng bo'lishligi. Tanlama to'plam uchun o'rtacha xato 5,22 mln so'mga teng:

$$\Delta_x = t * \mu_x = t \sqrt{\frac{\sigma^2}{n} \left(1 - \frac{n}{N}\right)} = 1,47 \sqrt{\frac{133031,76}{7792} \left(1 - \frac{7792}{55646}\right)} = 1,47 \sqrt{17,0685 * 0,860} = 5,22 \text{ mln so'm} \quad (3)$$

Bosh to'plam uchun o'rtacha miqdor ishonch intervali quyidagi oraliqda bo'lishi kutiladi:

$$\begin{aligned} \bar{x} - \Delta_x &\leq x \leq \bar{x} + \Delta_x, \\ 481,85 - 5,22 &\leq x \leq 481,85 + 5,22 \\ 476,63 &\leq x \leq 487,07 \end{aligned} \quad (4)$$

<sup>11</sup> Muallifning ilmiy tadqiqotlari (so'rovnoma) natijalari asosida hisob-kitoblar

Shunday qilib, 0,860 ehtimol bilan aytish mumkinki, sanoat korxonalarining olgan o'rtacha foydasi 476,63 mln so'mdan 487,07 mln so'mgacha intervalda bo'lishi kutiladi.

b) 0,869 ehtimollik bilan 600 mln so'mdan katta bo'lgan O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasi darajasining salmog'ining o'zgarishi chegaralarini aniqlaymiz:

$$R=W \pm \Delta_w \text{ bu yerda } W = m/n = 2673/7792 = 0,343 \text{ yoki } 34,3 \%$$

$$\Delta_w = t * \mu_w = t \sqrt{\frac{w(1-w)}{n} \left(1 - \frac{n}{N}\right)} = 1,51 \sqrt{\frac{0,343(1-0,343)}{7792} \left(1 - \frac{7792}{55646}\right)}$$

$$= 1,51 \sqrt{0,0000289 * 0,860} = 0,006 \text{ yoki } 0,6 \% \quad (5)$$

$$0,343 - 0,006 \leq 0,343 \leq 0,343 + 0,006$$

$$0,337 \leq 0,343 \leq 0,349 \quad (6)$$


$$33,7\% \leq 34,3\% \leq 34,9\%$$

Demak, 0,869 ehtimollik bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining olgan foydasi darajasining salmog'i 33,7 %dan 34,9 %gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi (2-jadval).

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini shakllantirib, sanoat korxonalarini faoliyatini mustaqil ravishda yurita olishi uchun salohiyatga ega bo'lishlari lozim. Statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi sanoat korxonalarining aksariyati bilim va malakaga yetarli ega bo'lmaganliklari sababli, rentabellik darajasi o'rta darajada ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Sanoat korxonangizda bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik pul daromadi qanday miqdorni tashkil etadi?

207 ответов



**5-rasm. O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning o'rtacha oylik pul daromadining salmog'i, (so'rovnoma asosida, %da)<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> Muallifning ilmiy tadqiqotlari (so'rovnoma) natijalari asosida hisob-kitoblar.

O'tkazilgan anketa – so'rovnomalari natijasidan ko'rinib turibdiki, 2024-yil

1-sentabr holatiga O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida qatnashgan 207 ta respondentdan 29 tasi (14 %) 0-2 mln so'mgacha, 46 tasi (22,2 %) 2-4 mln so'mgacha, 52 tasi (25,1 %) 4-6 mln so'mgacha, 33 tasi (15,9 %) 6-8 mln so'mgacha, 20 tasi (9,7 %) 8-10 mln so'mgacha ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik pul daromadi ekanligini ko'rsatmoqda. Afsuski, shuni alohida ta'kidlash lozimki, 12 tasi (5,9 %) 10-12 mln so'mgacha va 15 tasi (7,2 %) 12 mln so'mdan yuqori oladigan sanoat korxonalarida ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik pul daromadi bo'lgan respondentlardan aniqlandi (5-rasm).

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning o'rtacha oylik pul daromadi to'g'risida ma'lumotlar<sup>13</sup>

Bitta xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik pul daromadi, mln so'm	Sanoat korxonalarining salmog'i, % (A <sub>i</sub> )	Oraliq o'rtasi, (SMD <sub>i</sub> )	SMD <sub>i</sub> · A <sub>i</sub>	Kumulyativ salmoq, %
0-2	14,0	1	14,0	14,0
2-4	22,2	3	66,6	36,2
4-6	25,1	5	125,5	61,3
6-8	15,9	7	111,3	77,2
8-10	9,7	9	87,3	86,9
10-12	5,9	11	64,9	92,8
12 dan yuqori	7,2	13	93,6	100,0
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>-</b>	<b>563,2</b>	

1. Bitta xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik pul daromadi:

$$\overline{\text{SMD}} = \frac{\sum \text{SMD}_i \cdot A_i}{\sum A_i} = \frac{563,2}{100} = 5,632 \text{ mln. so'm.} \quad (7)$$

2. Modal daromad:

$$M_o = 12 + 2 \frac{(7,2-5,9)}{(7,2-5,9)+(7,2-0)} = 2,14 \text{ mln. so'm} \quad (8)$$

3. Mediana daromad:

$$M_e = 8 + 2 \frac{50,0-77,2}{9,7} = 2,4 \text{ mln. so'm} \quad (9)$$

Sanoat korxonalarida jon boshiga joriy yilda ko'p uchraydigan o'rtacha daromad 5,632 mln so'mni tashkil etadi. Sanoat korxonalarida bitta xodimga o'rtacha daromadi 2,14 mln so'mdan past, ikkinchi qisminiki esa undan yuqori.

4. Quyi detsil:

<sup>13</sup> Muallifning ilmiy tadqiqotlari (so'rovnoma) natijalari asosida hisob-kitoblar.

$$DI_1 = x_{di_1} + i_{di_1} \frac{1}{f_{di_1}} \cdot \sum f \cdot S_{di_1-1} = 4 + 2 \frac{10,0-36,2}{25,1} = 1,912 \text{ mln. so'm} \quad (10)$$

5. Yuqori detsil:

$$DI_9 = x_{di_9} + i_{di_9} \frac{9}{10} \cdot \frac{\sum f \cdot S_{di_9-1}}{f_{di_9}} = 12 + 2 \frac{90,0-92,8}{7,2} = 11,222 \text{ mln.so'm} \quad (11)$$

Mos ravishda sanoat korxonalarining past daromadli xodimlarining 10 foizi uchun maksimal daromad 1,912 mln so'mni, yuqori daromadli 10 foiz xodimlarining minimal daromadi 11,222 mln so'mni tashkil etadi.


6. Sanoat korxonalarining oylik pul daromadlari tabaqalashuvining detsil koeffitsiyenti:

$$K_{di} = \frac{DI_9}{DI_1} = \frac{11,222}{1,912} = 5,87 \text{ marta.} \quad (12)$$

Ushbu koeffitsiyent yuqori daromadli 10 foiz korxonalarining minimal daromadi kam daromadli 10 foizli korxonalarining maksimal daromadidan 5,87 marta ko'p ekanligini ko'rsatadi (3-jadval).

4-jadval

### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiyon bog'lanish natijalari<sup>14</sup>



<sup>14</sup> Muallifning ilmiy tadqiqot natijalari hisob-kitoblari.

X<sub>7</sub>- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi, mlrd so'm;  
 X<sub>8</sub>- Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'm;  
 X<sub>9</sub>- Issiqlik elektr markazlari va issiqlik elektr stansiyalarining jami o'rnatilgan quvvati, MVt;  
 X<sub>10</sub> - Hidroelektr stansiyalarining jami o'rnatilgan quvvati, MVt;  
 X<sub>11</sub>- Sanoat sektorida elektr energiyasi ta'minot hajmi, million kvt/soat;  
 X<sub>12</sub> - Neft qazib olish, ming tonna;  
 X<sub>13</sub> - Gaz kondensati qazib chiqarish hajmi, ming tonna;  
 X<sub>14</sub>- Benzin ishlab chiqarish hajmi, ming tonna.

ARIMA (avtoregressiv integratsiyalangan harakatlanuvchi o'rtacha, ba'zan Box-Jenkins modeli, Box-Jenkins metodologiyasi) integratsiyalangan avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha model – vaqt seriyalarini tahlil qilish uchun model va metodologiya hisoblanadi. Bu statsionar bo'lmagan vaqt seriyalari uchun ARIMA modellarining kengaytmasi bo'lib, uni asl vaqt seriyasidan (integral yoki farqli statsionar vaqt seriyasi deb ataladi) ba'zi tartiblardagi farqlarni olish orqali statsionar qilish mumkin. ARIMA (p, d, q) modeli d tartibidagi vaqt qatorlarining farqlari ARIMA (p, q) modeliga bo'ysunishini bildiradi. Statsionar bo'lmagan (X<sub>t</sub>) vaqt seriyasi uchun ARIMA (p, d, q) modeli quyidagi ko'rinishga ega:

$$\Delta^d X_t = c + \sum_{i=1}^p a_i \Delta^d X_{t-i} + \sum_{j=1}^q b_j \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t \quad (13)$$

Bu yerda:

$\varepsilon_t$  – statsionar vaqtli qator;

$c, a_i, b_j$  – model parametrlari;

$\Delta^d$  – d tartibli vaqt qatorining ayirmasi operatori (birinchi tartibdagi farqlarni d marta ketma-ket qabul qilish).

Avval vaqtli qatordan, keyin birinchi tartibdagi olingan farqlardan, keyin ikkinchi tartibdan va hokazo.

Ushbu model, shuningdek, birlik ildizlariga ega model sifatida ham talqin qilinadi. Bizda an'anaviy modellar mavjud bo'lganda, 2010–2024-yillar (15 yillik kuzatuv) asosida prognoz qilinadigan asosiy ko'rsatkich (Y) hisoblanadi:

Korrelyatsiya koeffitsiyenti ikki o'zgaruvchi orasidagi bog'lanish kuchi va yo'nalishini ko'rsatadi:

**+1** - yaqin qiymatlar kuchli ijobiy bog'lanishni bildiradi (bir o'zgaruvchi oshsa, ikkinchisi ham oshadi);

**-1** - yaqin qiymatlar kuchli salbiy bog'lanishni bildiradi (bir o'zgaruvchi oshsa, ikkinchisi kamayadi);

**0** - yaqin qiymatlar esa bog'lanish yo'qligini bildiradi.

X<sub>1</sub> (Sanoat tarmog'ida band bo'lgan xodimlar soni): – bu ko'rsatkich sanoat tarmog'ining ishchi kuchi hajmini ifodalaydi va qo'shilgan qiymatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutiladi. X<sub>1</sub> bilan qo'shilgan qiymat orasida kuchli ijobiy korrelyatsiya kuzatilsa, bu sanoat ishchi kuchining ishlab chiqarish natijasiga bevosita ta'sirini bildiradi. X<sub>2</sub> - (Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni): – korxonalar sonining ko'pligi ishlab chiqarish hajmini oshirishi

mumkin. Shuning uchun  $X_2$  bilan qo'shilgan qiymat orasida ijobiy bog'lanish bo'lishi tabiiy.  $X_3$  -(Korxonalarda band bo'lgan xodimlar soni): – bu ham ishchi kuchi bilan bog'liq va  $X_1$ ga yaqin ko'rsatkich.  $X_3$ ning qo'shilgan qiymatga ta'siri  $X_1$ ga o'xshash, ammo ba'zan u ko'proq aniqroq bo'ladi.  $X_4$  va  $X_8$  (Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi): – bu ikki ko'rsatkich takrorlangan, ammo agar har biri turli yo'nalishlarni o'lchasa (masalan,  $X_4$  – oziq-ovqat,  $X_8$  – boshqa tovarlar), ular sanoatning ishlab chiqarish qobiliyatini ko'rsatadi. Ijobiy korrelyatsiya kutish mumkin.  $X_5$  (Elektr energiyasi ta'minot hajmi) va  $X_{11}$  (Sanoat sektorida elektr energiyasi ta'minoti): – Elektr energiyasi sanoat ishlab chiqarish uchun asosiy resursdir. Ularning qo'shilgan qiymatga kuchli ijobiy ta'siri kutiladi.  $X_6$  (Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmi): – Sanoat uchun issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ham muhim. Bu ko'rsatkich ham qo'shilgan qiymat bilan ijobiy bog'liq bo'lishi mumkin.  $X_7$  (Tog' -kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi): – Tog'-kon sanoati ko'plab resurslarni ishlab chiqaradi va qo'shilgan qiymatga katta ta'sir qiladi. Kuchli ijobiy korrelyatsiya ehtimoli yuqori.  $X_9$  (Issiqlik elektr markazlari va issiqlik elektr stansiyalarining jami o'rnatilgan quvvati): – Energiya quvvati ko'payishi sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi, shuning uchun ijobiy korrelyatsiya kutiladi.  $X_{10}$  (Gidroelektr stansiyalarning jami o'rnatilgan quvvati): – Hidroenergiya quvvati ham sanoatga ta'sir qiladi, ammo ijobiy korrelyatsiya  $X_9$ ga nisbatan biroz pastroq bo'lishi mumkin.  $X_{12}$  (Neft qazib olish),  $X_{13}$  (Gaz kondensati qazib chiqarish),  $X_{14}$  (Benzin ishlab chiqarish): – Energetika va neft-gaz sanoatining o'ziga xosligi bor. Ushbu ko'rsatkichlar qo'shilgan qiymatga sezilarli ta'sir qilishi kutiladi, ayniqsa neft-gaz sanoati rivojlangan hududlarda (5-jadval).

#### 5-jadval

### O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymatiga ta'sir etuvchi eng kuchli va kuchsiz, ijobiy hamda salbiy omillar<sup>15</sup>

Eng kuchli ijobiy omil*	Eng kuchsiz ijobiy omil*
$X_8$ – Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'm	$X_1$ - Sanoat tarmog'ida band bo'lgan xodimlar soni, ming kishi
Eng kuchli salbiy omil*	Eng kuchsiz salbiy omil*
$X_{13}$ – Gaz kondensati qazib chiqarish hajmi, ming tonna	$X_{11}$ – Sanoat sektorida elektr energiyasi ta'minot hajmi, million kvt/soat

Agar modelga ikki yoki undan ko'p juft chiziqli korrelyatsion o'zaro bog'langan omil kiritilsa, u holda regressiya tenglamasi bilan bir qatorda boshqa chiziqli bog'liqlik ham paydo bo'ladi. Mul'tikollinearlik deb

<sup>15</sup> Muallifning ilmiy-tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

nomlanuvchi bunday hodisa regressiya koeffitsiyentlarining miqdorini buzib ko'rsatadi va ularning iqtisodiy talqinini qiyinlashtiradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmog‘i faoliyatining samaradorligini prognozlashtirish”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida sanoat tarmog‘ining qo‘shilgan qiymatini 2025–2027-yillarga prognozlashtirish amalga oshirilib, sanoat tarmog‘i faoliyatini samaradorligini statistik baholashning ustuvor yo‘nalishlarining statistik baholash uslubiyati takomillashtirilgan.

Stata biror platforma tanlamaydigan dasturlash tilidir (cross-platform), bu esa Windows, MacOS va Linuxda ham bimalol kod yozish imkonini beradi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat hajmini 2025–2027-yillarga prognozlashtirish uchun ularning xatoliklarini MAPE, MAD va MSD orqali taqqoslab, eng optimal modelni tanlaymiz hamda shu model asosida prognoz qiymatlarini ishlab chiqamiz.

$$\ln Y = \ln \gamma + \alpha \ln X_1 + \beta \ln X_2 + \gamma \ln X_3 + \delta \ln X_4 + \eta \ln X_5 \quad (14)$$

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ida qo'shilgan qiymat hajmini "Stata 17" dasturi 2025–2027-yillarga prognozlashtirish uchun ma'lumotlar<sup>16</sup>

Yillar	Sanoat tarmog'i -ning qo'shilgan qiymati hajmi, mlrd so'm (Y)	Sanoat korxonolari soni, birlikda (X <sub>1</sub> )	Sanoat tarmoqlarida band bo'lganlar soni, kishi (X <sub>2</sub> )	Sanoat tarmog'i ning eksport hajmi, mlrd dollar (X <sub>3</sub> )	Sanoat tarmog'i ning import hajmi, mlrd dollar (X <sub>4</sub> )	Sanoat tarmog'i ning asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi, (X <sub>5</sub> ) mlrd so'm	Ln(Y)					
								Ln(X <sub>1</sub> )	Ln(X <sub>2</sub> )	Ln(X <sub>3</sub> )	Ln(X <sub>4</sub> )	Ln(X <sub>5</sub> )
2010	165572,8	29900	1606	15,8	21,1	155335,1	12,02	10,31	7,38	2,76	3,05	11,95
2011	172858,0	34400	1641	17,2	22,4	156888,4	12,06	10,45	7,40	2,84	3,11	11,96
2012	182710,9	35600	1670	18,8	22,5	158771,1	12,12	10,48	7,42	2,93	3,11	11,98
2013	196414,2	39900	1703	18,4	22,7	159882,5	12,19	10,59	7,44	2,91	3,12	11,98
2014	205252,9	42800	1737	18,8	23,3	161161,5	12,23	10,66	7,46	2,93	3,15	11,99
2015	216131,3	45600	1769	17,6	24,4	162289,7	12,28	10,73	7,48	2,87	3,19	12,00
2016	227802,4	43500	1802	18,5	25,4	163425,7	12,34	10,68	7,50	2,92	3,23	12,00
2017	239648,1	47250	1827	18,9	26,1	172250,7	12,39	10,76	7,51	2,94	3,26	12,06
2018	265530,1	51000	1803	19,0	26,4	178279,5	12,49	10,84	7,50	2,94	3,27	12,09
2019	278806,6	62400	1822	18,3	28,9	179349,1	12,54	11,04	7,51	2,91	3,36	12,10
2020	281315,9	83579	1810	17,7	31,3	181680,7	12,55	11,33	7,50	2,87	3,44	12,11
2021	306071,7	91152	1863	17,6	31,9	182225,7	12,63	11,42	7,53	2,87	3,46	12,11
2022	322293,5	98805	1811	17,9	32,4	182954,6	12,68	11,50	7,50	2,88	3,48	12,12
2023	342597,9	69444	1836	18,1	34,1	183869,4	12,74	11,59	7,52	2,90	3,53	12,12
2024	365894,6	55646	1945	18,2	33,9	283519,8	12,81	11,63	7,57	2,90	3,52	12,56

Bu yerda:

Y – Sanoat tarmog'i ning qo'shilgan qiymati hajmi, mlrd so'm;

X<sub>1</sub> – Sanoat korxonolari soni, birlikda;

X<sub>2</sub> – Sanoat tarmoqlarida band bo'lganlar soni, kishi;

X<sub>3</sub> – Sanoat tarmog'ining eksport hajmi, mlrd dollar;

X<sub>4</sub> – Sanoat tarmog'ining import hajmi, mlrd dollar;

X<sub>5</sub> – Sanoat tarmog'ining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi, (X<sub>5</sub>) mlrd so'm.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu amalni bajarish uchun darajali funksiya logarifmlash yordamida chiziqli holatga aylantiriladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$\log Y = \log Y + \alpha \log X_1 + \beta \log X_2 + \gamma \log X_3 + \delta \log X_4 + \eta \log X_5 \quad (15)$$

Demak, logarifm shaklidagi yuqori omilli ishlab chiqarish funksiyasini tuzamiz. Buning uchun oldingi jadvalda berilgan ma'lumotlarni logarifm shaklida yozamiz va keyin regressiya dasturiga kirib hisob-kitob qilamiz va quyidagilarga erishamiz:

$$\ln Y = \ln Y + \alpha \ln X_1 + \beta \ln X_2 + \gamma \ln X_3 + \delta \ln X_4 + \eta \ln X_5 \quad (16)$$

